



DEVIANT XULQ MUAMMOSINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

*University of Business and Science
pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich
email:turaboevazamat@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar, deviant xulq-atvor va ularning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tahlil qilingan.

Kalit so'z: Shaxs, ijtimoiylashuv, deviant xulq-atvor, makroomillar, mezoomillar, gipermoslashuv, radikal moslashuv, jamiyat.

Abstract: This article analyzes the factors influencing the socialization of the individual, deviant behavior and their socio-psychological mechanisms.

Keywords: Personality, socialization, deviant behavior, macrofactors, mesofactors, hyperadaptation, radical adaptation, society.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы, влияющие на социализацию личности, девиантное поведение и их социально-психологические механизмы.

Ключевые слова: Личность, социализация, девиантное поведение, макрофакторы, мезофакторы, гиперадаптация, радикальная адаптация, общество.

KIRISH

Respublikamizda o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va hususiy mulk ustuvorligiga



asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishtaligi va farovon hayot kechirishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ma`ruzasida yoshlarga beriladigan ta`lim va tarbiyaning sifatini oshirish, turli sohalarga kadrlar tayyorlash masalasiga ham e`tibor qaratldi “...Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo`yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o`qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta`lim olish, ma`naviy-ma`rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko`mak beradigan muhitni yaratish zarur..”¹ ekanligi ta`kidlab o`tildi.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog`liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko`plab olimlar insonning tug`ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog`liq barcha

hodisalarni o`rganishni tadqiq qilish orqali, uning o`ta murakkab jihatlarini kashf

etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og`ishi, buzilishi bilan bog`liq muammoni psixologiya fani

o`rganadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Deviantlik, og`ishgan xulq muammosi psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, huquq-tartibot organlari xodimlari, sotsiologlar, faylasuflarda qiziqish uyg`otib kelgan. Og`ishgan xulq mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega.

¹ Мирзиёев Ш. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т. “Ўзбекистон”, 2017 й. – 45-б.



Yondashuvlarning turli-tumanligi shaxs xulqini og'ishganligini tashhis qilish, uni

profilaktika qilish va ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish jarayonida uni bartaraf

etish kabi amaliy vazifalarni yechishda ham ko'zga tashlanadi.

Inson axloqining birmuncha muhim xususiyatlaridan biri – bu uning o'z mohiyati bo'yicha ijtimoiyligidir, u jamiyatga shakllanadi va amalga oshadi.

Inson axloqining boshqa barqaror xususiyati – bu uning nutqiy boshqaruv va maqsad qo'yilganligi bilan mustahkam aloqasi hisoblanadi. Umuman, insonning

axloqi uning ijtimoiylashuvi jarayonini – jamiyatga integratsiyasini aks ettiradi.

Ijtimoiylashuv, o'z navbatida, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishni ko'zda tutadi. Ya'ni ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning temperamenti, xarakteri, qobiliyatlari qiziqishlari va dunyoqarashi muhim o'rin tutadi.

Moslashuv – individuallashuv jarayonlarining nisbati bo'yicha, shuningdek, jamiyatda shaxs mavqei yuzasidan ijtimoiy moslashuvning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

radikal moslashuv – shaxsning mavjud ijtimoiy hayotda o'zgarishi orqali o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishi;

gipermoslashuv – shaxsning o'z oliy yutuqlari vositasida ijtimoiy hayotga ta'siri orqali o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishi;

uyg'unlashgan moslashuv – shaxsning jamiyatda ijtimoiy talablarga orientatsiyasi vositasida o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishi;

konformistik moslashuv – individuallikni bostirish, o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishni birlashish hisobiga;

deviant moslashuv – mavjud bo'lgan ijtimoiy talab(me'yor)lardan chiqish vositasida o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish;



ijtimoiy psixologik moslashmaganlik (dezadaptatsiya) – o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish va moslashish jarayonlarini blokirovkalash holati.

Ijtimoiy-psixologik adabiyotlarning tahliliga ko‘ra, deviant xulq-atvor shaxsning ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyati bilan bevosita bog‘liq, ya’ni jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me‘yorlar, qoidalar va qadriyatlardan og‘uvchi xatti-harakatlar majmuasidir. Bunday xulq jamiyat tomonidan ma‘qullanmagan yoki kutilgan xulq me‘yorlariga mos kelmaydigan harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Inson axloqida ijtimoiylashuvning ifodalanish shakllari

Asoslanganlik – shaxsning ehtiyojlari va maqsadlariga yo‘naltirilgan harakatlanishga ichki tayyorlik

mahsuldorlik – ongli maqsadlarni amalga oshirish. Shaxs xulqining shunday belgilari borki, ular anchagina xususiy, biroq kam bo‘lmagan ahamiyatga egadir

O‘xshashlik – aniq vaziyat bilan kelishish


faollik darajasi (energiyalilik va tashabbuskorlik)

moslashish – ijtimoiy muhitning yetakchi talablariga muvofiqlik

hissiy ifodalanganlik (namoyon etilayotgan affektlarning kuchi va xarakteri)

haqqoniylik – individuallik axloqining mosligi, uning ushbu shaxs uchun tabiiy ekanligi

turg‘unlik (turli vaqt va turlicha vaziyatlarda ko‘rinishlarning doimiyligi)



“Axloq” turidagi tushunchaning barcha ko‘rib chiqilgan tavsifnomalari uning “shaxsning og‘ishgan xulqi” kabi turiga ham to‘la ma’noda taalluqlidir.

Ijtimoiy-me’yoriy mezon nuqtai nazaridan axloq me’yoriyligining yetakchi ko‘rsatkichi shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasi hisoblanadi. Bunda me’yordagi, muvaffaqiyatli moslashuv qadriyatlararo, individning xususiyatlari

va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitdagi talablar, qoidalarning maqbul muvozanati bilan xarakterlanadi. Shubhasiz, ijtimoiy talablarni yaqqol inkor etish kabi individuallikni tenglashtirish, masalan, konformizm shaklida – shaxs manfaatlarini muhit bosimiga to‘liq bo‘ysundirish ham birdek muammo hisoblanadi. Moslashmaganlik (dezadaptatsiya) – bu shaxsiy ahamiyatli bo‘lgani kabi muhit talablarini qabul qilish va bajarishga shuningdek, o‘z individualligini aniq ijtimoiy sharoitlarda ro‘yobga chiqarish sust layoqat holatidir.

Moslashmaganlikning (dezadaptatsiya) ijtimoiy va individual ko‘rinishlarini ajratish mumkin. Moslashmaganlikning ijtimoiy ko‘rinishlari quyidagilar hisoblanadi:



- past o‘zlashtirish, o‘z mehnati bilan mablag‘ ishlab topishga layoqatsizlik;
- hayotiy muhim sohalarda surunkali yoki yaqqol ifodalangan omadsizlik (oilada, ishda, shaxslararo munosabatlarda);
- qonun bilan nizolar;
- yakkalanib qolish.

Moslashmaganlikning individual ko‘rinishlari sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Ijtimoiy talablarga munosabati yuzasidan salbiy ichki tartib (ular bilan kelishmaslik, tushunmaslik, norozilik, qarshi harakat);
2. O‘zining mas’uliyatdan qochishga intilishida atrofdagilarga ko‘tarinki e’tiroz bildirish, egosentrizm;
3. Surunkali hissiy noqulaylik;
4. O‘z-o‘zini boshqarishning besamarligi;
5. Janjalkashlik va kommunikativ ko‘nikmalarning zaifligi;
6. Reallikni kognitiv buzib ko‘rsatish.

Odam turlicha tuyg‘ularni – yengil xavotir va o‘ziga ishonchsizlikdan tortib, chidab bo‘lmas darajadagi nochorlik, qo‘rquv, umidsizlik jazavalarigacha

boshidan kechirishi mumkin. Bunda shaxsning real ijtimoiy maqomi va uning individual ongi o‘rtasida bo‘linishi yuzaga kelishi mumkin.

So‘nggi mezon – individual psixologik mezon har bir shaxs, uning individualligining o‘sib boruvchi barcha qadriyatlarini aks ettiradi.

Hulosa qilib aytganda, shaxs xulq atvorining shakllanishida ijtimoiy omillarning o‘rni beqiyosdir.

Foydaligan adabiyotlar royhati:

1. Akbarov S.Yu. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - Namangan, “Fazilat orgtex-servis” x/k, 2021;



2. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To'ychiyeva Sh., Djumabayeva M. Yosh va pedagogik psixologiya. - T., 2007;

3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya T. 2007.

4. G'oziev E. Umumiy psixologiya. T. 2008.

5. Nishonova Z.T. Qurbonova Z. Psixodiagnostika. T. 2008.

6. Ivanov P.I. Zufarova M. Umumiy psixologiya T. 2008.

7. Komilova N.G', Xaydarov F.I. Muammoli o'smir: moslashuv, tashxis, korreksiya usullari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2008.

8. [SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI](#) A To'raboyev - МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ JURNALI, 2025

[Related articles](#) [All 2 versions](#) <https://doi.org/10.5281/zenodo.15641133>

9. Nishonova Munira Yakubjonovna, & Xalilov Adham Farhod og'li. (2024). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 149–153. Retrieved from <https://newjournal.org/01/article/view/14974>

10. [RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASINING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI, USHBU SOHADAGI ILMIY-AMALIY TADQIQOTLAR](#)

TRA Muxamadullayevich, NB Gayratovich - Research Focus, 2025 [Related articles](#)

11. Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT.

12. Qayumov, B. Z. (2025). O'SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO'LISHINING HUDUDIIY TAFOVUTLARI. *МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ JURNALI*, 3(6).



13. Qayumov, B. Z. O. G. L., & Yo‘qubxo‘jayeva, M. A. Q. (2025). O‘quvchilarda kreativlik rivojlanishida shaxs individual xususiyatlarni roli. *Science and Education*, 6(12), 627-632.
14. Odilboyevich, J. X. (2026). SHAXSGA MOTIVATSION YONDASHUVNING PSIXOLOGIK JIXATLARI (O ‘SMIRLIK YOSH DAVRI MISOLIDA). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 61(1), 29-35.
15. Olimbayevna, R. M., & Odilboyevich, J. X. (2026). SHAXS JINOYATCHILIKKA MOYILLIGINING GRAFOLOGIK PSIXOLOGIK TAHLILI (Yetuklikning birinchi bosqichi misolida). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 61(1), 54-63.
16. Maxamatrasulovna, S. F., & Odilboyevich, J. X. (2026). AYOLLAR O ‘RTASIDAGI JINOYATCHILIKNING KRIMINOLOGIK PSIXOLOGIK JIXATLARI (Yetuklik davri misolida). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 61(1), 64-70.